



The importance of dictogloss in the integration of language skills

Dilfuzakhon GANIEVA¹

Gulistan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024

Received in revised form

15 August 2024

Accepted 25 August 2024

Available online

15 September 2024

Keywords:

integration,
language skills,
reading,
writing,
listening comprehension,
speaking,
dictogloss,
segregation.

ABSTRACT

In modern language teaching practices, it is crucial to integrate language skills without isolating them from one another. This article explores the practical significance of dictogloss as a method for integrating language skills in English language teaching.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss8/S-pp5-9>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Til ko'nikmalarining integrallashuvida diktoglossning ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

integratsiya,
til ko'nikmasi,
o'qish,
yozish,
tinglab tushunish,
so'zlashish,
diktogloss,
segregatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy til o'qitish amaliyotida, til ko'nikmalarini bir biridan ajratmagan holda ularni o'zaro uyg'un ravishda integratsiya qilish haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ingliz tilini o'qitish jarayonida til ko'nikmalari integratsiyasida diktoglossning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi.

¹ Teacher, PhD student, Gulistan State University. E-mail: dilfuzaganiyeva57@gmail.com

Значение диктоглосса в интеграции языковых навыков

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интеграция,
языковые навыки,
чтение,
письмо,
понимание на слух,
говорение,
диктоглосс,
сегрегация.

В практике современного преподавания языка важно интегрировать языковые навыки, рассматривая их как единое целое. В данной статье рассматривается практическое значение метода диктоглосс в интеграции языковых навыков при обучении английскому языку. Диктоглосс способствует развитию всех основных навыков – аудирования, говорения, чтения и письма – через комплексный подход, что делает его эффективным инструментом в языковом обучении.

KIRISH

Dunyodagi barcha davlatlarda xorijiy tillarni o'rganish va zamonaviy bilimlarni turli tillarda egallash globalashuv jarayoni bilan birgalikda ro'y bermoqda. Bizning respublikamizda ham xorijiy tillarni o'rganish, xususan ingliz tilini o'qitishga qaratilgan e'tibor, bir nechta davlat rahbarining farmonlari va qarorlarida o'z tasdig'ini topmoqda.

Til ko'nikmasi ilgari tajriba asosida fikrlarni ravon ifodalay olish hamda boshqalar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyatidir. Bu ko'nikma tinglovchi ya'ni, qabul qiluvchiga yetkazmoqchi bo'lgan ma'lumotlarning tuzilishi va ahamiyatini ta'minlaydi. Kundalik hayotda muloqot, til ko'nikmalari ishtirokisiz amalga oshirilmaydi. Yozma muloqotda yozish va o'qish, og'zaki muloqotda esa, so'zlashish va tinglash ko'nikmalaridan foydalaniladi. Kommunikatsiya asosiy til ko'nikmalarining integratsiyasidir.

Integratsiya lotin tilidan olingan bo'lib, "integration" "tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish" degan ma'noni bildiradi. O'zbek tilining izohli lug'atida "Ayrim qismlarning, elementlarning bog'liqlik holati, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha [1]. Xorijiy til lug'atida esa, integratsiya – bir narsani boshqa bir narsa bilan qo'shib, butunlik hosil qilishidir [2].

An'anaviy o'qitish metodida til ko'nikmalari bir-biridan ajratilgan holda o'qitilgan va bir darsda faqat birgina til ko'nikmasiga e'tibor qaratilgan. Bu o'quvchilarni kommunikatsion muhitga tayyorlash uchun ancha samarasiz ekanligi aniqlandi va zamonaviy til o'qitish amaliyotida til ko'nikmalarini kombinatsiyasidan foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Diktogloss interaktiv metodi aynan til ko'nikmalarining integratsiyasida va kommunikatsion jarayonni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til ko'nikmalari integratsiyasi 2 yoki undan ortiq til ko'nikmalarining kommunikativ faoliyat jarayonidagi kombinatsiyasidir [3]. E. Henkelga ko'ra esa, integrallashgan til ko'nikmalari yondashuvi bu to'rt asosiy til ko'nikmalarini o'qish, yozish, so'zlashish va tinglab tushunish hamda ularning kichik ko'nikmalarini o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan o'qitish usulidir. O'tgan asrning 80-yillariga qadar til ko'nikmalari bir-biridan ajratilgan holda segregatsiyon o'rgatilgan. Ingliz tilini muvaffaqiyatli o'qitishda, to'rt asosiy til ko'nikmalarini o'zaro bog'lab o'qitish samarali yondashuv hisoblanadi. Bu ko'nikmalar kommunikativ kompetensiyani asta-sekin rivojlantirib

borishga yordam beradi. Tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalari doim yuqori darajada bir-biriga bog'langan. Shu sababdan, bu ikkisi og'zaki muloqotni samarali bo'lishiga asos bo'ladi. O'qish va yozish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan yozma muloqot vositalaridir [6]. Ingliz tilini kommunikatsiya uchun o'qitishning eng ustuvor yondashuvi til ko'nikmalari integratsiyadir. Yana shuningdek, to'rt asosiy ko'nikmalarning integratsiyasi real kommunikativ vaziyatga yaqin bo'lgan usulda, ingliz tilini o'qitish uchun auditoriya muhitini autentik sifatida tashkil etishda muhim hisoblanadi [5].

Integratsiya til o'rganuvchilarga katta motivatsiya beruvchi yondashuv bo'lib, ularning o'qish, yozish, so'zlashish va tinglab tushunish ko'nikmalarini yanada oshirishlariga yordam beradi. Guruhlarda ishlash jarayonida, o'rganuvchilar o'zaro fikr almashadilar, bir-birlari bilan muloqot qiladilar hamda bilgan ma'lumotlarini almashadilar, bilmaganini o'rganadilar va bu ularga ingliz tilini o'rganishni qiziqarli va maroqli bo'lishiga, til o'rganishga qiziqishga undaydi.

Integratsiya, shuningdek, o'rganuvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi shu sababdan, ular analiz qilish, sintezlash va ma'lumotni yaxshiroq baholay olish ko'nikmalarini oshiradilar [7]. O'qituvchi tanlagan matn mazmunini tiklash jarayonida o'quvchilar har bir ma'lumotga diqqatlarini qaratadilar va asl matnda keltirilgan ma'lumot bilan o'zlarida mavjud bo'lgan bilimni solishtirib, matnni qayta qurishda foydalanadilar.

Til ko'nikmalarini dars jarayonida integrallashtirish uchun "diktogloss" eng samarali va natijasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan isbot etilgan interaktiv metod hisoblanadi. An'anaviy diktoglosda kichik matn o'qib eshittiriladi, o'quvchilar tinglash davomida matndagi muhim ma'lumotlarni eslatma shaklida keyinchalik foydalanish uchun yozib oladilar. Yozib olgan eslatmalari yordamida juft holda yoki kichik guruhlarda asl matn mazmunini saqlagan holda qayta yozib chiqadilar. Diktogloss birinchi bor avstraliyalik o'qituvchi-murabbiy Rut Wajnrib tomonidan uning "Grammar Dictation" kitobida keltirilgan. Uning asosiy maqsadi o'rganilgan grammatik qoidani darsda mustahkamlash maqsadida qo'llashni nazarda tutgan. An'anaviy diktant ko'rinishlaridan biri deb e'tirof etilgan diktogloss interaktivligi va boshqa xususiyatlari bilan diktantdan farqlidir. "Grammar dictation" kitobida Rut diktogloss quyidagicha bosqichlarga ega deb tanishtiradi:

a) Tayyorgarlik. Mavzu va unga bog'langan so'zlar oldindan tanlanadi va mavzu asosida matn tayyorlab qo'yiladi.

b) O'qish. Matnni o'quvchilar o'rta tezlikda eshitadilar va kerakli ma'lumotlar, sanalar hamda nomlarni yozib oladilar.

c) Qayta qurish. Bu bosqichda, o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, bir-birlari bilan ma'lumot almashgan holda, o'qib eshittirilgan matnni qayta yozadilar.

d) Tahlil va to'g'rilash. Bu yakuniy bosqichda, o'rganuvchilar yozgan matnlarini tekshirib, tahlil qiladilar. Guruhlar yozgan matnlarni bir-birlariniki bilan va asl matn bilan solishtirib ko'radilar. Xatolarini to'g'rilaydilar [8].

Diktoglossning turli variantlari bo'lib, til o'rgatuvchilar ta'lim jarayonida foydalanganlarini e'tirof etib o'tganlar. Diktoglossdan o'quv jarayonida foydalanish til ko'nikmalarining deyarli barchasini bir darsda kombinatsiyalash imkonini beradi. Tinglab tushunish ko'nikmasi an'anaviy yondashuvga ko'ra, boshqa til ko'nikmalari singari alohida yoki so'zlashish ko'nikmasi bilan birga o'qitilgan. Biroq, real voqelik muhitidagi muloqotda tinglash boshqa til ko'nikmalari bilan integrallashgandir.

Zorana Vasilyevikga ko'ra, tinglab tushunish va tilni qayta ishlash deyarli avtomatik bo'lishini talab qiladi. Nutq tezligi oshgani sayin, talabalar leksik va grammatik ma'nosini qayta ishlashga ko'proq e'tibor berishlari va izohlashga kamroq e'tibor berishlari kerak bo'ladi. Diktoglossdan birinchi bor foydalanilganda o'quvchilar bir necha bor matn audiosini eshitishlariga to'g'ri kelishi mumkin. Birinchi bor eshittirilganda o'quvchilarga eslatma yozib olishga ruxsat berilmaydi. Matning asosiy mazmunini tinglab tushunadilar. Ikkinchi bor eshittirilganda, eslatma yozib oladilar. Uchinchi marta audio eshittirilganda eslatmalarni mustahkamlab oladilar [4]. Bu diktoglossning ikkinchi bosqichi bo'lib aynan o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Diktoglossning uchinchi bosqichida o'quvchilar Rut Vajribga ko'ra bir-birlari bilan yozib olgan ma'lumotlarini almashadilar va o'zaro muloqotga kirishadilar. Bu jarayon davomida ingliz tilida fikr almashish, so'zlashish ko'nikmasi amaliyotda qo'llaniladi. Bundan keyingi bosqichda, o'rganuvchilar asl matn mazmunini qayta yozib chiqadilar. Bu bosqichda ular yozuv ko'nikmalari bilan birga grammatik va leksik sub-kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Oxirgi bosqichda, o'quvchilar yozgan matnlarini o'zaro solishtirish uchun o'qib eshittiradilar. O'qituvchi asl matnni qayta qo'yib eshittiradi va o'quvchilar o'zlarining matnlaridagi xatolarni tekshiradilar. Shunday qilib, diktoglossstil ko'nikmalarining deyarli barchasini bir dars davomida integrallashuvida ishtirokini ko'rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Diktogloss ko'plab ilmiy izlanuvchilarning va tadqiqotchilarning tadqiqot obyekti bo'lgan. Hashem A. Alsamadani "Talabalarining yozma ko'nikmalarini rivojlantirishda diktoglossning samarasi" nomli ilmiy maqolasida arab kollej talabalari bilan tadqiqot o'tkazadi. Izlanuvchi ikkita guruh: nazorat va eksperimental guruhlar bilan besh hafta davomida tadqiqot olib boradi. Eksperimental guruhda yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirish uchun, diktoglossdan foydalaniladi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish metodi qo'llaniladi. Besh haftadan so'ng yakuniy test va so'rovnoma o'tkaziladi. Yakuniy statistik ma'lumot va xulosalarga ko'ra, diktoglossdan foydalangan eksperimental guruh diktoglossning talabalar yozuv ko'nikmasini va ularning motivatsion yondashuvini rivojlantirishini isbotladi [10]. Suzana Kurtaj "Yozish orqali grammatikani o'qitishda diktoglossdan foydalanish" ilmiy maqolasida yozish, tinglab tushunish va so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning kombinatsiyalashuvida diktoglossning o'rni haqida so'z boradi. S. Kurtaj o'ninchi sinf maktab o'quvchilarini tadqiqoti uchun tanlab oladi. Jami sakson nafar har xil bilim darajasidagi talaba ishtirok etadi. Diktoglossdan ikki bor foydalanildi. Birinchi bor foydalanilganda grammatik xatolar ko'p bo'lib, ikkinchi marotaba foydalanilganda ularning deyarli ko'pi bartaraf etiladi. Grammatik kompetensiyani va interaktivlikni rivojlantirishda diktogloss foydali ekanligi isbotlanadi [9]. Mostafa Sayedning "Ikkinchi bosqich talabalarining ingliz tilidagi Grammatik kompetensiyasini va ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini rivojlantirishda diktogloss strategiyasidan foydalanish" maqolasida o'tkazgan tadqiqoti va uning natijasi beriladi. Tadqiqotchi tadqiqot ishi uchun 60 nafar birinchi bosqich talabalarini jalb etadi. Ikkita guruh nazorat va eksperimental guruhlar tashkil etildi. Eksperimental guruhda sinov vositasi sifatida diktoglossdan foydalaniladi. Tadqiqot natijalari eksperimental guruhdagi talabalarining grammatik ko'nikmasi nazorat guruhiga nisbatan rivojlanganini muallif tadqiqot natijalarini test orqali tekshirish orqali isbotlab beradi [11].

XULOSA

Ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda diktogloss eng samarali va natijasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan sinalgan usul hisoblanadi. Kommunikativ muhitda ingliz tilida muloqot qila olishlik uchun barcha til ko'nikmalari integratsion o'qitish muhim hisoblanadi va diktoglossdan foydalanish bir vaqtning o'zida tinglab tushunish, o'qish, so'zlashish, yozish, grammatik kompetensiyalarini va lug'at boyligini oshirish uchun eng foydali usullardan biri ekanligi tadqiqotlar isbotlab bergan. Dars jarayonida qo'llash, dars sifatini va o'quvchilarning til ko'nikmalarini egallashni osonlashtirish bilan birga ularda til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini va motivatsion yondashuvlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. Ikkinchi jild.- Tshkent:O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – 671 b
2. Oxford English Dictionary. <https://www.oed.com>
3. [5]. Integrating Four Language Skills in Curriculum. <https://www.daily-sun.com/printversion/details/587287>
4. Zorana Vasiljevic. Dictogloss as an Interactive Method of Teaching Listening Comprehension to L2 Learners// English language teaching. –2010. – № 1. – b.41
5. Integrating Language Skills: The Key to Successful Language Learning. <https://www.cambridge.org/elt/blog/2020/01/30/integrating-language-skills-the-key-to-successful-language-learning/>
6. Rebecca L. Oxford. Integrating the language skills//SYSTEM. – 1994. – № 22. – b.257-268
7. Evelina Galakzi. Benefits of testing the four skills (reading, listening, writing and speaking) <https://www.cambridgeenglish.org/blog/benefits-of-testing-the-four-skills>
8. Vajnrub. R. Grammar Dictation. Resource book for teachers. Series Editor. – Oxford: Oxford University Press,1990. – 6b
9. Syzana Kurtaj. The Use of Dictogloss Technique in Teaching Grammar Through Writing//European Journal of Language and Literature Studies. –2021.–№7. – b 84
10. Hashem A. Alsamadani. Dictogloss in Saudi EFL Context: Potential Effects On Students' Writing Skill and Attitudes towards Learning English//Arab World English Journal. – 2022. – №13. – b27-37
11. Mustafa Sayed. Using Dictogloss Strategy for Developing Secondary Stage Students' English Grammar Competence and Motivation Towards Learning English Language//BSU Journal of Pedagogy and Curriculum. – 2023 2(3): 134-152.